

ADABIYOT DARSLARIDA O‘QUV TOPSHIRIQLARI ISHLAB CHIQISH METODIKASI (O‘TKAN KUNLAR ASARI MISOLIDA)

Haqberdiyeva Qunduz Abdurasul qizi,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti magistranti
G-mail: yulduzxaqberdiyeva7@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiyot fanini o‘qitishda o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishning nazariy-metodik asoslari tahlil qilinadi. Adabiy ta’limda o‘quv topshiriqlarining didaktik ahamiyati, ularning o‘quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirishdagi o‘rni hamda interfaol metodlar asosida topshiriqlarni ishlab chiqish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘zbek va jahon adabiyoti namunalarini tahlil qilish asosida topshiriqlar tizimining samaradorligi yoritiladi. Tahlil natijalari tahliliy, muammoli va ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi hamda badiiy tafakkurini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: adabiyot ta’limi, o‘quv topshirig‘i, metodika, badiiy tahlil, kompetensiya, interfaol metod, estetik tafakkur.

Аннотация. В данной статье исследуются теоретико-методические основы разработки учебных заданий при преподавании литературы. Анализируется дидактическое значение учебных заданий в литературном образовании, их роль в развитии художественно-эстетического мышления учащихся, а также методы разработки заданий на основе интерактивных технологий. Кроме того, на основе анализа образцов узбекской и мировой литературы раскрывается эффективность системы учебных заданий. Результаты исследования показывают, что аналитические, проблемные и творческие задания являются эффективным средством развития самостоятельного мышления и художественного восприятия учащихся.

Ключевые слова: литературное образование, учебное задание, методика, художественный анализ, компетенция, интерактивный метод, эстетическое мышление.

Abstract. This article explores the theoretical and methodological foundations of developing educational tasks in teaching literature. It analyzes the didactic significance of educational tasks in literary education, their role in developing students’ artistic and aesthetic thinking, as well as methods of designing tasks based on interactive approaches. In addition, the effectiveness of the system of educational tasks is highlighted through the analysis of examples from Uzbek and world literature. The research findings demonstrate that analytical, problem-based, and creative tasks serve as effective tools for developing students’ independent thinking and artistic perception.

Keywords: literary education, educational task, methodology, literary analysis, competence, interactive method, aesthetic thinking.

Kirish. XXI asr ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan asosiy talablardan biri – mustaqil fikrlovchi, ijodkor va ma’naviy yetuk shaxsni tarbiyalashdir. Bu jarayonda adabiyot fanining o‘rni beqiyosdir. Chunki badiiy adabiyot inson ruhiyatiga ta’sir qiluvchi, estetik didni shakllantiruvchi va hayotiy qarashlarni boyituvchi muhim vosita hisoblanadi. Adabiyot fanini o‘qitish jarayonida o‘quv topshiriqlari asosiy didaktik vosita vazifasini bajaradi. Topshiriqlar o‘quvchilarni matnni tushunishga, asarni tahlil qilishga, qahramonlar xarakterini ochishga, muallif g‘oyasini anglashga, hayotiy xulosalar chiqarishga yo‘naltiradi. N.Taranosova nazarida: “..tahlil adabiy asarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri va jo‘n tushunish o‘rniga fikran ma’noli qism va unsurlarga bo‘lib qabul etishni ko‘zda tutadigan ilmiy faoliyatdir”.[1] Yan Amos Komenskiyning ta’kidlashicha “Mumkin bo‘lgan hamma

narsa tuyg'ularning his etilishi uchun yetkazilishi kerak".[2] Bu kabi fikrlardan berilgan fikrlardan har bir asar tahlili uchun ma'lum bir topshiriqlar va yondashuvlar kerak.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda kompetensiyaviy ta'lim muhim o'rin tutadi. Endilikda adabiyot darslari faqat matn mazmunini o'rgatish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon kommunikativ kompetensiya, tanqidiy tafakkur, estetik dunyoqarash, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. Mazkur tadqiqotning maqsadi — adabiyot o'qitishda o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish metodikasini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, shuningdek, asar tahlili asosida samarali topshiriqlar tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyot darslarida ma'lum bir asar yoki ijodkor hayoti va ijodini o'rganish mobaynida topshiriqlardan foydalanishni yo'lga qo'yish o'quvchilarda fan haqidagi bilim va ko'nikmalarni oshirishga xizmat qiladi. Maktab darsliklarida adabiyot fani uchun o'quv topshiriqlaridan foydalanishni yo'lga qo'yish uchun nazariy tahlil metodlari orqali pedagogika va adabiyot o'qitish metodikasiga oid ilmiy manbalarni tahlil qilinadi, xususan, o'zbek olimlaridan hisoblangan Qozoqboy Yo'ldoshevning "Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari" asarida berilgan o'quv topshiriqlari lirik, dramatik, nasriy asarlar tahlili asosiy ko'rsatkich ekanligini keltiriladi.[3] Q. Yo'ldoshevning "Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari" kitobida adabiy ta'lim tizimini tubdan yangilashning ilmiy-nazariy va tashkiliy tamoyillarini ishlab chiqqan. Asarda olim o'quvchilarga tayyor tushunchalar berish emas, balki badiiy matn asosida o'quvchilarda ma'naviy qarashlar, estetik did qaror toptirish birlamchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatib bergan. U "Adabiyot o'qitish metodikasi" qo'llanmasi mualliflaridan biri sifatida adabiy ta'limning o'zak masalalariga yangicha yondashuv namunasini ko'rsatgan. Bundan tashqari pedagogik kuzatish va pedagogik tajribalar o'tkazish orqali o'quvchilarning adabiyot darslaridagi faolligiga, berilgan asarning matnini anglashiga, asar mohiyatini tahlil qilishiga e'tibor qaratiladi. Pedagogik tajriba 8-sinf o'quvchilarida o'tkazildi. Bu tajriba davomida o'quvchilarga reproduktiv, tahliliy, muammoli va ijodiy topshiriqlar berildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda adabiyot fanini o'qitishda o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish metodikasini o'rganish uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini kompetensiyaviy ta'lim, interfaol o'qitish texnologiyalari hamda faoliyat yondashuvi tashkil etdi. Shuningdek, Vygotskiy va Leontevning psixologik-pedagogik qarashlari, hamda Qozoqboy Yo'ldoshevning adabiyot o'qitish metodikasiga oid ilmiy ishlari metodologik asos sifatida xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, pedagogik tajriba, qiyosiy tahlil hamda umumlashtirish metodi. Nazariy tahlil orqali adabiyot darslarida topshiriqlar tizimining ilmiy asoslari o'rganildi. Pedagogik kuzatish va tajriba esa 8-sinf o'quvchilari ishtirokida amalga oshirilib, ularning reproduktiv, tahliliy, muammoli va ijodiy topshiriqlarga munosabati tahlil qilindi.

Shuningdek, tajriba-sinov ishlari davomida o'quvchilarning badiiy tafakkuri, mustaqil fikrlashi va matn tahlil qilish ko'nikmalaridagi o'zgarishlar kuzatildi. Olingan natijalar qiyosiy tahlil asosida baholandi va umumlashtirildi.

Tadqiqotning ishonchliligini ta'minlash maqsadida interfaol topshiriqlar tizimi amaliy sinovdan o'tkazildi hamda ularning samaradorligi reproduktiv topshiriqlar bilan solishtirildi. Natijada tahliliy, muammoli va ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning kognitiv va ijodiy rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Tahlillar va natijalar. Adabiyot darslarida o'quv topshiriqlaridan foydalanishni takomillashtirish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijasi o'smir yoshdagi bolalarning badiiy tafakkurini rivojlantirishini ko'rsatdi. Interfaol va ijodiy topshiriqlar o'quvchilar tafakkurini o'stirishga xizmat qiladi. Masalan, "O'tkan kunlar" romani asosida quyidagicha tahliliy topshiriqlar ishlab chiqildi.

Otabek va Kumush obrazlarining ma'naviy fazilatlarini tahlil qiling.

Mazkur topshiriq o'quvchilarning qahramon xarakterini ochish, obrazlararo munosabatni tushunish, tarixiy muhitni anglash ko'nikmalarini rivojlantirdi. Shu kabi topshiriqlar bola ongini o'stirish va milliy mentalitetni tushunish uchun xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni o'qituvchi aytganlarini bajaradigan ishtirokchilikdan ta'lim-tarbiya kechimining ijrochilari darajasiga ko'tarish maqsadida o'zlashtiriladigan bilimlarni bolalar oldiga muammo shaklida qo'yish masalasi pedagogida o'rganilgan. B.To'xliyev,[4] Marg'uba Mirqosimova[5] va boshqa olimlar o'quvchini intellektual faoliyatga undovchi ichki ehtiyoj muammoli vaziyatlarda paydo bo'lishini, bu ehtiyoj uning oldiga qo'yilgan murakkab masala mohiyatini bilishga bo'lgan qiziqishdan tug'ilishini asoslaganlar. Ular o'quvchi muammoli vaziyatda butun qobiliyati, bor imkoniyati va hayotiy tajribasini to'liq safarbar etgan holda faoliyat yuritishini ilmiy-amaliy jihatidan isbotlab berganlar. Olimlarning tadqiqotlarida o'quvchi faolligini oshirish orqali bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini ko'tarish maqsadi yetakchilik qilgan. Ammo bu tadqiqotlarning ko'pchiligida muammoli ta'limdan o'quvchida shaxslik sifatlarni shakllantirish, ma'naviy kamolotini ta'minlash maqsadida foydalanish, bu yo'lda mustaqil mulohaza yuritishga o'rgatish masalalari chetda qolgan.[6]

Adabiyot darslari mobaynida muammoli topshiriqlarni o'quvchilarga berish orqali ularni alternativ fikrlashga undash mumkinligi isbotlandi. Bunday topshiriqqa misol qilib, *Agar Otabek eski urf-odatlariga qarshi chiqmaganida voqealar qanday yakun topgan bo'lar edi?*

Bu kabi topshiriq qiyinroq tuyilishi tabiiy. Muammoli ta'limda o'quvchining bilishga bo'lgan ehtiyoji qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida ma'lum amaliy yoki nazariy bilimlar, faoliyatning shartlari va usullariga muhtojlikning his etilishidir. Bilishga bo'lgan ehtiyoj muammoli vaziyatning zaruriy qismi bo'lib, yangilikni qidirishga, o'zlashtiriladigan bilimga fikriy faollikni talab qiladi. U fikrlash jarayonida bolaning o'z-o'zini boshqarishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bilishga bo'lgan ehtiyoj ta'limda

o'zlashtirish jarayonini boshqarishning zaruriy shartlardan sanaladi. Muammoli ta'limda o'quvchilar qiyinchiliklarga duch kelishlari, tabiiy. Muammoli vaziyatda qiyinchilik o'zlashtirilishi lozim bo'lgan noma'lum narsaning yangiligi va umumlashtirilishi zarurligi hamda o'quvchi intellektual imkoniyatlari darajasi bilan xarakterlanadi. o'quvchining intellektual imkoniyati qancha kichik bo'lsa, biror masalani hal qilishda muammoli vaziyatning murakkabligi shuncha katta bo'ladi. o'qituvchi dars boshida muammoni qo'yish bilan birga butun dars davomida uning muammolilik darajasini uzluksiz tarzda saqlab tura olsagina, biror mavzuni muammoli tarzda o'rganish mumkin bo'ladi. Butun dars davomida muammoni yechish bilan shug'ullansagina o'quvchining bilim olishdagi faolligi va mustaqilligi ta'minlanadi. Aslida bu masalalarning yechimi maqsad emas, o'quv materialini ongli ravishda o'zlashtirish va o'quvchi qobiliyatlarini o'stirish vositasidir. Ma'lumki, darsda muammoli vaziyat hosil qilishda o'quv predmetining mantig'iga, tafakkuming qonunlari va shakllariga rioya qilinishi lozim. o'quv lani mantig'i uni o'zlashtirishning muammoliligi va izchilligini ta'minlaydi. Ma'lumki, fanlarning o'zi ham hayot va amaliyot ilgari surgan muammolar asosida rivojlanadi.

Keyingi topshiriq turiga ijodiy topshiriqlarni keltirish mumkin. Maqolada tahlilga tortgan asarimiz matnidan kelib chiqib *Kumush nomidan kundalik yozing*. Bu topshiriq orqali o'quvchi asarda keltirilgan obrazlarning ruhiy holatini chuqurroq his qilishga muvaffaq bo'lish mumkin.

Keltirilgan topshiriqlarni amaliyotga tatbiq etish jarayonidagi natijalar shuni ko'rsatadiki, muammoli, bahsli va ijodiy topshiriqlar o'quvchilarni darsga qiziqishini oshirishga va darsning sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, adabiyot fanida samarali topshiriqlar tizimini ishlab chiqish ta'lim samaradorligini oshiradi. An'anaviy reproduktiv topshiriqlar asar mazmunini qayta tiklashga xizmat qiladi. Biroq zamonaviy adabiy ta'lim tahliliy va muammoli, ijodiy yondashuvni talab qiladi.

Vygotskiy nazariyasiga ko'ra, murakkab topshiriqlar o'quvchilarning intellektual rivojlanishini jadallashtiradi. Tajriba davomida aynan tahliliy topshiriqlar yuqori natija ko'rsatgani ushbu nazariyani tasdiqladi.

Leontevning faoliyat nazariyasiga ko'ra, bilim faol faoliyat davomida egallanadi. Shu sababli rolli o'yinlar, sahnalashtirish, munozarali topshiriqlar samarali hisoblanadi.

Psixologik jihatdan ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. Chunki ular erkin fikrlash, o'z nuqtayi nazarini ifodalash imkoniyatini beradi.

Asar tahliliga asoslangan topshiriqlar esa o'quvchilarning estetik didi, badiiy tafakkuri, hayotiy qarashlarini boyitadi.

Xulosa. Adabiyot o'qitishda o'quv topshiriqlarini ilmiy-metodik asosda ishlab chiqish zamonaviy ta'limning muhim talablaridan biridir. Tadqiqot natijalari tahliliy, muammoli va ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy tafakkuri, estetik dunyoqarashi, kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini

ko'rsatdi. Asar tahliliga asoslangan topshiriqlar o'quvchilarning badiiy matnni chuqur anglashiga yordam beradi. Shu bois adabiyot darslarida interfaol metodlar, bahs-munozara, ijodiy yozuv, tadqiqot topshiriqlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Kelgusida raqamli texnologiyalar asosida adabiyot faniga oid interaktiv topshiriqlar platformasini yaratish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Taranosova N. Adabiy tahlil asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – B. 15.
2. Komenskiy Ya.A. Buyuk didaktika. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 1975. – 240 b.
3. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari.-T.1996. 56-b
4. B. To'xliyev. Maxsus fanlami o'qitish metodikasi. - T.: TDPU, 2008.
5. M. Mirqosimova. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. - T.: «Fan», 2006.
6. Husanboyeva q. Adabiyot o'qitish metodikasi. –Toshkent. 2018.-B. 116

